

XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI

Olimjonova Mardona Hamidjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute 3-bosqich talabasi

Jumagul Nishonova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute o'qituvchisi, ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xotin-qizlarning nafaqat jamiyatimizda balki davlatimiz miqyosida o'z faolligini oshirib borayotganliklari haqida shuningdek ularning ijtimoiy hayotdagi pedagogik yutuqlari, ayniqsa hozirgi kunda dolzarb hisoblangan gender tengligi huquqlari haqida bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ayol, jamiyat, davlat, huquq, pedagogika, gender tenglik, siyosat, tarix, inson, deklaratsiya, faollik.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF INCREASING SOCIAL ACTIVITY OF
WOMEN AND GIRLS

Olimjonova is the daughter of Mardona Hamidjon

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan 3rd grade student

Jumagul Nishonova

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, teacher, Scientific supervisor

Abstract: *This article describes the increasing activity of women not only in our society, but also at the level of our country, as well as their pedagogical achievements in social life, especially the rights of gender equality, which are considered relevant today.*

Keywords: *Woman, society, state, law, pedagogy, gender equality, politics, history, human, declaration, activism*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ
АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН И ДЕВУШЕК

Олимжонова дочь Мардоны Хамиджон.

Государственный институт искусства и культуры

Узбекистана ученица 3 класса

Научный руководитель: **Жумагуль Нишонова**

Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, учитель

Аннотация: *В данной статье описывается возрастающая активность женщин не только в нашем обществе, но и на уровне нашей страны, а также их педагогические достижения в общественной жизни, особенно права гендерного равенства, которые считаются актуальными на сегодняшний день.*

Ключевые слова: *женицина, общество, государство, право, педагогика, гендерное равенство, политика, история, человек, декларация, активизм.*

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lg'a kiritib, ham huquqiy ham ijtimoiy va albatta demokratik sohalarni rivojlantirib kelayotgan bir zamonda xotin-qizlarga e'tibor jamiyatimizning asosiy vazifasidir. Shuningdek onalik va bolalik muhofazasi, ijtimoiy hayotdagi huquqlari va ularga nisbatan zo'ravolik holatlari kunning dolzarb mavzusi bo'lib kelmoqda. Biz hozrgi davrda baralla ayta olamiz jamiyatimizda ayollar roli yildan yilga oshib borayotganligini chunki oldingi davr holatiga ko'ra biz hatto oila a'zolarimiz oldida o'z fikrimizni ayta olmagan edik lekin kun keldiki biz nafaqat oilada balki jamiyatda, hatto butun bir mamlakatda fikrlarimizni baralla ayta olamiz. Bu esa bizning davr rivojlanayotganligi, mamlakatimiz esa taraqqiy etayotganidan dalolat beradi.

Hozrgi davr holatiga to'xtaladigan bo'lsak mamlakatimizning har bir chekka shahar, qishloqlarida yashayotgan xotin-qizlar to'la qonli o'z huquqlaridan va imkoniyatlaridan foydalana olyabdi desak adashgan bo'lamiz albatta. Chunki hali shunday oilalar va shunday jamiyatlar borki unda ayol qadri yo'q. Nega endi shunday? Nega endi butun dunyoni o'z go'yalari va fikrlari bilan lol qoldira oladigan, Yevropa va Osiyoning eng kuchli davlatlarini boshqara oladigan, o'z siyosati bilan dunyoda tinchlik o'rnata olishi mumkin bo'lgan AYOLLAR oramizda yoki mamlakatimizda juda kam. Biz bu holatlarda doimo dinimizni ro'kach qilamiz. Dinimizda ayol kishi uyda o'tirsin, ayol kishi jamiyat ishlariga aralashmasin, ayol kishi kaltaklansin xatto kaltaklansa ham qarshilik ko'rsatmasin degan joyi yoq. Bu borada dinimiz ayollarga juda ko'p erkinliklar bergan. Shunday bo'lsada ba'zilar buni o'zlariga moslashtirib olishgan. Bunday notog'ri talqinlar orqasidan qanchdan qancha yetuk is'tedod va bilim sohibalari bo'lgan ayollar jamiyatimizda shunchaki birgina majburiyat uchun yaratilgan, faqat uyda turishi va kiyimlarimizni ilish vazifasini o'tab kelayotgan bir ilgich (vishelka) kabi faqat shkak ichida...

Yurtimizda xotin-qizlarning siyosiy favolligini oshirish bo'yicha balki ijtimoiy faoliyatini yaxshilovchi turli xil qonun va qarorlar chiqarilib, buning samarasi aro mamlakatimizda pedagogik salohiyatga ega bo'lgan ayollarimiz soni oshib boryabdi. Pedagogik salohiyatli ayollar sonining ko'payishi esa oramizda bilimli yoshlar sonini ortib borishiga olib keladi albatta.

Pedagogika o'zi nima? Insoniyat tarixining har bir bosqichida rivojlanish yo'nalishi ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotning metodologik birligi qonuniyati asosida belgilangan. Ushbu qonuniyat jamiyatda hukm surgan ijtimoiy- iqtisodiy qarashlar, g'oyalar va ideallar asosida ijtimoiy ong shakllari bo'lgan fan, san'at, madaniyat, ishlab -chiqarish va turmush tarzi rivojlanishiga omil bo'lgan. Shu tariqa tarixiy taraqqiyot davomida barkamol shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish yuzasidan to'plangan boy ma'naviy meroslar xalq pedagogikasida o'z ifodasini topib borgan.

Vatanimizga mukammal, axloqan pok, har tomonlama yetuk, o'z xalqi va vataniga fidoiy, jismoniy barkamol yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining barcha imkoniyatlaridan foydalanish masalalari mazkur fanni o'rganish maqsadini belgilab beradi. Chunonchi milliy va ma'naviy qadriyatlar mohiyatini kelgusi avlodga tushintirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, qadriyatlarni yaratuvchi ham, avloddan avlodga yetkazuvchi ham

xalqning o'zi. Shu bois ham xaq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o'rganiladi, bunda ular quyidagi quyidagi shakllarni namoyon bo'ladi: oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatlari, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoi-siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar, badiiy-estetik qadriyatlar, sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma'naviy-ruhiy qadriyatlar.[1;9]

Odamlar orasida koproq ayol kishi pedagog bo'ladi degan naql bor , lekin bu gapda rostan ham ancha mantiq bor ekan. Chunki xalqimiz orasida ayol pedagog xodimlar soni anchayin ko'p hisoblanadi. Buning sababi ayol kishi oilada ona ekanligidir, u bolani erkaklarga nisbatan ko'proq tushinadi. Suning uchun u bolalar bilan tez chiqisha oladi va ularga psixologik jihatdan ham yordam bershi mumkin.

O'qituvchi tarbiyasi o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda u psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi.

Ma'lum ma'noda psixologiya tukumidagi fanlarni ham pedagogik fanlar tizimiga kiritish mumkin.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fan o'qituvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlash, belgilash hamda go'zallikni chin ma'noda tushintirish, o'quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qirralarga mehr uyg'otadi. Fanlarni o'qitish yo'llari ham pedagogika fanining didaktika bo'limiga aloqador. Chunki har qanday fanni o'qitish metodi va shu fanning mazmuni, tizimini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olishga xizmat qiladi.[2;14]

Tarbiyaning maqsadini pedagoglar ham, ota-onalar ham yaxshi bilishlari lozim.

Umumta'lim maktablarida tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida shaxsning har tomonlama kamolatga erishuvi asos qilib olinadi. Shaxsning har tomonlama kamolatga erishuvi, bu uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to'laqonligi, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Tarbiya moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuliga, jamiyatning ijtimoiy tuzulishiga, siyosiy tizimga, mafkuraga bog'liqdir.[2;109]

Tarbiya so'zini ishlatganimizda ko'pincha etika va estetika sozlari hayolimizga kelishi mumkin. Bu tabiiy albatta. Chunki estika va stetika tarbiyaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Har bir aqlli pedagog ayollarimiz u haqda o'quvchilarga tushuncha berib ketishlari kerak bo'ladi albatta.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni voqelikdagi , san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qiish hamda to'g'ri tushinishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish hamda hayotiga go'zallik baxsh etuvchi qobilyatlarini tarbiyalashdir.

Jamiyatning estetik madaniyati - insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plangan moddiy va ma'naviy qadriyatlari majmuyi demakdir. O'quvchi shaxsining estetik madaniyati uning madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxs estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari estetik ong, ehtiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir.[2;188]

O'qitish risoladagidek bo'lishi uchun talaba va pedagoglar ouditoriya va uydagi ishlar vaqtning o'zlari uchun gigeyenik va fiziologik jihatdan belgilangan normalariga ega bo'lishi kerak. Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini ya'ni ta'lim

berish va tarbiyalash jarayonini loyihalashda yondashish tamoyilini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. [3;131

Bu jarayonlar albatta pedagogika sohasining rivojlanishiga yordam beradi. Yurtimizda ayol pedagogiklarning o‘qitish metodikasi yildan yilga oshib bormoqda chunki yurtimizda pedagog hodimlarga nisbatan e‘tibor yildan yilga oshib bormoqda. Bu esa davlatimizda ta‘lim sohasini yanada kelajakda taraqqiy etishini korsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.M.J.Mutalipova. Xalq pedagogikasi. - T.: “Fan va texnologiya”, 2015,160 bet.

2.O‘.M.Asqarova, M. Xaytiboyev, M.S.Nishonov. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. - T.: “Talqin”, 2008.-288b.

3.B.Sayfullayev, N.Isaqulova.Kasbiy pedagogika. - T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 216bet.